

ALEKSANDR MAKEDONSKIYNING BOSQINCHILIK YURISHLARI.

*Ortiqboeva Gulsevar Otobek qizi.**Urganch Davlat Universiteti**Ijtimoiy – iqtisodiy fanlar fakulteti**Tarix(mintaqalar va yo'nalishlar bo'yicha)yo'nalish 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari o'r ganiladi. shu bilan birga u bosib olgan hududlarni va bu hududlarda qanday siyosat yuritganini bilib olishinggiz mumkin. Maqolada Aleksandrning qo'shini, sarkardalari, harbiy taktikasi, tarixchilarining Aleksandr davri tarixiga bo'lgan munosabatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Makedoniya, Aleksandr, Filipp II, Ahamoniylar davlati, Anitapatr, Granit, Gvatemela, Bukefal.

Abstract: This examine the military campaigns of Alexander's army, generals, military tactics, and the relationship of historians to this period.

Key words : Macedonia, Alexander's, Philip II, Achaemenid State, Antipater, Granite, Guatemala, Bucephalus.

Аннотация: В данной статье рассматриваются военные походы Александра Македонского. Заодно можно узнать о завоеванных им территориях и какую политику он проводил на этих территориях. В статье описывает армия Александра полководец военная тактика а также отношение историков к истории Александровского времени.

Ключевые слова: Македония, Александр, Филипп II. Государство Ахеменидов, Антипатер, Гранит, Гватемала, Буцефал.

Aleksandr (Sharq mamlakatlarida Iskandar) makedoniyalik sarkarda, mohir davlat arbobi „Buyuk“ sifatini olgan Aleksandr III ko'proq Aleksandr Makedonskiy nomi bilan tanilgan. Uning otasi Filipp II imperiyani boshqara turib Makedoniyani Dunay daryosidan markaziy Yunonistongacha cho'zilgan hududda yetakchi harbiy mamlakatga aylantirdi. Uning o'limi Osiyoga rejlashtirilgan hujumlar va barcha yutuqlarni xavf ostiga qo'ydi. Aleksandr miloddan avvalgi 336-yilda otasi o'lgan vaqtida 20 yoshda edi. Garchi Filippning bir nechta xotinlaridan merosxo'rlari bo'lsa ham, Aleksandrga Filipp butun hokimiyati merosxo'ri sifatida qaraganlar va uning kelajagi uchun qattiq qayg'urganlar. Aristotel bilan birga bir nechta yunon ustozlari yunon adabiyoti va madaniyatidan ta'lim bergen. Aleksandr ulardan bir umrlik Gomerga muhabbatni va afsonaviy ajdodlari Axill va Geraklning qahramonliklariga tenglashi yoki o'tib ketish maqsadini oladi.

Aleksandrning shaxsiy mavqeyi imperiyaning dastlabki inqirozli yilda unchalik mustahkam emas edi. Bunga Filippning ba’zi amoldorlari Yunonistonni qo’ldan berish xavfi tufayli Makedoniyaning shimoliy o’lkalarini mustaqil qilishga bo’lgan harakatlari sabab bo’ldi .

Yunoniston Aleksandrning e’tiborini tortdi. Filippning dafn marosimi tugashi bilanoq, Aleksandr Filippning o’chini olish uchun o’zini mustaqil deb e’lon qilgan Yunonistonning asosiy polislari Afina va Fivaga yurish qilishga qaror qildi . Aleksandr Makedoniyaning Fessaliya va Korinf Ligalaridagi gegemonligini tasdiqladi.

Yunonistondan qaytgan Aleksandr mill.avv 335- yil bahorida Philipp o’limidan keyin Makedoniya asoratida qutulishga harakat qilgan Tirakiya va Illiriyaga qarshi yurish qildi

Mill.avv 332-yilda Aleksandr Misrga yurish qildi . Misrliklar Makrdon qo’shinlarini xursandchilik bilan kutib oldilar .Misrdagi Eron satrapi Aleksandrga qarshilik ko’rsatisjh o’rniga unga xayrioxlik bildirdi va kohinlar bilan birga Aleksandrni kutib olgani chiqdi . Misrliklar Eron asoratida qutulganidan xursand edilar . Ularning xursand bo’lishiga yana bir sabab Aleksandrning Misr xudolariga qurbanlik qilishi haqida buyruq bergenligi va Misr kohinlaridan bu diniy rusum qanday bajarilishi haqida so’raganligi bo’ldi . Nafaqat oddiy Misr ahli , balki , zodogonlar va kohinlar ham yosh Aleksandrning Misr dini va urf –odatlariga muhabbatini ko’rib xursand bo’lganlar . Kohinlar Aleksandrni fir’avn deb e’lon qildilar va o’z –o’zidan Aleksandr quyosh xudosi Amon – Ranning o’g’liga aylandi.Mil.avv. 332-yilda Aleksandr Nil daryosi quyilish joyidagi deltada Aleksandriya shahrini qurdirdi. Bu shahar keyinchalik shakllangan ellistik dunyoning eng ravnaq topgan shahriga aylandi.

Mil.avv.1 V asrdan boshlab O’rta Osiyoning asosiy dehqonchilik vohalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning batamom yangi , faol yo’liga o’tdiki bu rivojlanish milodiy III-l V asrlarda inqirozga uchray boshlaydi . Shaharsozlik madaniyati va sug’orish tartibi , yozuv va pul muomalasi, moddiy va badiiy madaniyatga oid ko’p sonli va turli-tuman yodgorliklar aynan mana shu rivojlanish jarayonidan dalolat beradi . Mil.avv 334-yil mayida Granik daryosi yonida , mil.avv 333-yil oktabrida Gvatemala, shimoliy –sharqiy Mesopatamiyada bo’lgan janglarda fors qo’shnulari to’la mag’lubiyatga uchradi . Shundan so’ng Aleksandr uchun Ahamoniylar davlatining markazlariga yo’l ochilgan edi. So’nggi Ahamoniy hukumдори Doro III ga qarshi fitna uyushtirib o’ldiradi va fitnaga boshchilik qilgan Bess o’zini Ahamoniylar podshosi deb e’lon qiladi.

Mil.avv 329-327 –yillarda Makedoniya podshosi Aleksandr Turondagi istilolardan so’ng , 120 ming kishilik qo’shin bilan Hindikush va Sulaymon tog’laridan oshib o’tib , Panjobdagagi mayda dalalarning ko’pchiligi Makedoniyalik Aleksandrga itoat etadi . Ammo Panjobdagagi eng kuchli podsholardan biri Por Aleksandrga qarshi

kurachga otlanadi.Por ixtiyorida 30 ming piyoda , 4 ming otliq askar , 3000 jang arava 200 jangovar fil mingan jangchilar bor edi. Ikki shoh o’rtasida shiddatli jang boshlanadi . Porning o’z jangovor fili ustida dushmanlar bilan qahramonlarcha kurashashib 9 joyidan o’g’ir yarador bo’ladi . Janglarining birida uning ikki o’g’li o’ladi. Ammo shunga qaramay u urush maydonini , askarlarini tark etmay ,jangni davom ettiradi. Urush Aleksandr qo’shinlarining g’alabasi bilan tugaydi . Por bilan bo’lgan urushda Aleksandr ko’p askarlaridan ayrıldi. Makedoniyalik Aleksandrning sevimli jangovor oti Butsefal ham janglarning birida tig’ tegib halok bo’lgan. Aleksandr halok bo’lgan otining sharafiga Hind daryosi bo’yida Butsefaldiya shahrini qurdirgan .

Mil.avv 325-324 yillarda makedonlar yaroq-aslahalari bilan qurollangan mahalliy aholi qo’shinlari Yunon-makedon armiyasi safiga jalb etiladi. Aleksandr mahalliy hokimiyat vakillariga nisbatan maqsadli siyosat olib borgan. Mil.avv 324-yilda Suza shahrida o’n mingta Yunon-makedon askarlari mahalliy ayollarga uylanadilar.Aleksandrning o’zi va sarkarda Gefestion Doro III ning qizlarini hamda sarkarda Salavka Spitamanning qizi Apamani xotinlikka oladilar .

Sagdullaevning fikricha , bunday yondashuv aniq siyosiy maqsad – yangi davlatchilik barpo etish g’oyasi bilan bog’langan edi . Bu davlat nafaqat turli xalqlarning siyosiy birlashmasi bo’libgina qolmay , balki uning kelajakda makedonlar va Sharq zodogonlari qon –qarindoshligi vorisligiga tayangan aylanishi rejalahtirilgan edi .

Grek yozuvchisi Diodor Sitsiliskiyning „ Tarixiy kutubxona “ asarining yettinchi kitobida ta’kidlanishicha ,Aleksandr harbiy yurishi davomida 120000 sug’diyonaliklarni qurban qilgan .

Ko’rinib turibdiki , bunday voqealar Aleksandr shaxsini ulug’lash va uni ijobjiy shaxs sifatida o’rganishimiz asossiz ekanligini isbot qiladi . Biz o’rganayotgan asarlarning ayrim sahifalarida Aleksandr obrazini ijobjiy ma’noda tasvirlashga moyillik borligi seziladi .

Grerk va Rim adiblari Plutarx , Arrian , Diodor ijodlarida Aleksandr Makedonskiyning O’rta Osiyodagi hayoti keng va bat afsil tasvirlanadi .

Aleksandr O’rta Osiyodan orttirgan boyliklarini Makedoniya Aleksandriya shaharlariga ketma-ket jo’natib turgan . Rus olimi M.M .Lyotovning fikricha , Aleksandr Osiyodan orttirgan shu qadar behisob boyliklarini Makedoniya ga jo’natganki , masalan bir karvon boylikni yuklash uchun 10000 juft qo’tos va 3000 tuya kerak bo’lgan .

Xullas,Aleksandr Makedonskiyning mil.avv 334-324-yillardagi harbiy yurishlari natijasida Bolqon yarim oroli, Egey dengizi orollari, Kichik Osiyo , Misr , Old va O’rta Osiyo , Hind daryosining Yuqori oqimigacha bo’lgan hududni qamrab oluvchi ulkan davlat tashkil topdi . Yunon-makedonlarning mil.avv 330-327-yillardagi

O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlariga qaramasdan o'sha davrda bu hududlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim o'zgarishlar bo'lib o'tdi . O'rta Osiyoga Ellin madaniyati kirib keldi . O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari yirik ellistik davlatlar tarkibiga kirib , bu viloyatlarda yangi siyosiy ma'muriy tartib joriy qilindi . Bu tartib O'rta Osiyoda madaniy , iqtisodiy , tovar pul munosabatlarining rivojiga turtki bo'ldi . Mahalliy va ellin madaniyatining uyg'unlashuvi bo'lib o'tdi .

Xulosa. Aleksandr yurishlari natijasida g'arbda Adriatika dengizidan Sharqda Hindistongacha , Shimolda Kavkaz tog'laridan janubda Nil daryosining o'rta oqimigacha cho'zilgan hududni qamrab olgan ulkan davlat vujudga keldi . Bu davlat hududiy – etnik , ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlari bilan avvalgi Ahamoniylar davlatini eslatar edi . Aleksandr o'zining ulkan davlatini uzoq boshqara olmadi . U mil. avv 323- yilda 32 yoshida Bobil shahrida vafot etdi . Aleksandrning o'limidan so'ng uning ulkan davlati parchalana boshladи . Oxir – oqibatda u bosib olgan hududlarda Ellin davlatlari tizimi shakllandи

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .

1. R. Rajabov - „ Qadimgi Dunyo Tarixi “ - „ Fan va texnologiya “ Toshkent 2009
2. D . Urakov , R. Tursonov , A.Biykuziyev, B.Xaynazarov - „ Jahon Tarixi “ Toshkent 2020 .
3. A. Kabirov - „ Qadimgi Sharq Tarixi “ Toshkent 2016 .
4. tarix.sinaps . uz
5. test-uz.ru